Arabian Journal of Science

ISSN:2308-5703

Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* July, 2026

THE MAGICAL LAZGI AND ITS ROLE IN OUR LIVES

Kamolova Komila Qulniyazovna

Student at the Urgench Branch of the State Choreography Academy of Uzbekistan

Telefon:+998 97 509 08 02

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21717151

Abstract: This article provides reliable information about the Khorezmian Lazgi and discusses the history of the creation of the Lazgi melody as well as the performers who contributed to its preservation and performance. The article also highlights the spiritual nature of this melody, emphasizing its ability to inspire people, convey kindness, and bring warmth, harmony, and positive emotions to human hearts.

Keywords: state, academy, associate professor, vibration, movement, accordion, hook, ancient, monument, monograph, ethnography, national, worthy, suite.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm lazgisi haqida aniq ma'lumotlar va Lazgi kuyining yaralish tarixi haqida hamda kimlar tomonidan ijro qilinganligi kabilar xususida yozilgan bo'lib bu kuyning ilohiyligi, insonlarga mehr ulashuvchi kuy ekanligi haqida ham yozilgan.

Kalit so'zlar: davlat, akademiya, dotsent, silkinish, harakat, garmon, changak, qadimiy, yodgorlik, monografiya, etnografiya, milliy, loyiq, suita.

Аннотация: В данной статье приводятся достоверные сведения о хорезмском танце «Лазги», а также рассматриваются история возникновения мелодии «Лазги» и исполнители, которые внесли вклад в её развитие и популяризацию. Особое внимание уделяется духовной сущности этого произведения, его способности передавать положительные эмоции, вдохновлять людей и дарить им чувство душевной теплоты и гармонии.

Ключевые слова: государство, академия, доцент, дрожание, движение, гармонь, крюк, древний, памятник, монография, этнография, национальный, достойный, сюита.

Xorazm lazgisi uch ming yillik tarixga ega. Filologiya fanlari doktori, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti Hulkar Hamroyeva muxbiriga bu raqs tarixi va unga oid qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab berdi. Uning so'zlariga ko'ra, lazgi raqsi xuddi olmosga o'xshaydi. Unga qaysi tomondan qaramang, yangi qirralari ochilaveradi. "Yarim bukilgan oyoqlar, silkinayotgan yelka va qo'llar - bu afsonaviy Lazgi raqsining asosiy harakatlari hisoblanadi. "Lazgi" so'zi "titrash" degan ma'noni anglatadi. Lazgining 9 ta turi mavjud bo'lib, ular "Masxaraboz", "Qayroq", "Surnay", "Dutor", "Saroy-bazm", "Garmon", "Changak" va "Xiva" deb ataladi. Bu turlarni insoniyat, uning o'tmishi va qadim tuprog'iga guvoh 90 ming nidosi deb bilaman", - deydi Hulkar Hamroyeva. 1960 yilda O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov Komil Xorazmiy g'azali bilan Lazgi kuyiga so'z bog'lagan. Bu bilan lazgining 9 turi "Yallali lazgi" paydo bo'ldi. "Komiljon Otaniyozov raqqosalardan, albatta, qo'shiqning so'zini yod olishni va bir harakatni ikki marotaba takrorlamaslikni talab qilgan", - deydi Hulkar Hamroyeva. Hamroyevaning so'zlariga ko'ra, Xorazm raqs maktabida eng muhim 19 ta raqs harakati bor. Bular lazgi raqs turkumining asosini tashkil qiladi. Xorazm raqs maktabida qo'llaniladigan qarsak, qayroq kabi harakatlar boshqa raqs maktablarida uchramaydi. Lazgiga raqs

tushayotgan ayollar asosan yorqin ranglar kiyadilar. Misol uchun, yoshi katta ayollar “Dutor” lazgisida raqs tushishgan. Ularning boshlarida lachak bo‘lgan. Yosh qizlarning boshlariga esa pat qadalgan. Ularning kiyimlari asosan tangalar bilan bezatiladi. Erkaklar boshlariga cho‘girma kiyib o‘ynashadi. “Surnay” lazgisi asosan erkaklar raqsi bo‘lib, Xorazmshohlar davrida qahramonlik raqsi deb ham atalgan. Davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti Xorazm raqsiga o‘xshash raqslardan biri bu lezginka raqsi ekanini ma’lum qildi. Bu Xorazmshohlarni Kavkaz tomonlarga yurishlari bilan bog‘liq. Lezginka ildizlari lazgidan boshlangan deb aniq ayta olish mumkin. “E’tibor bersangiz, lazgida odamni kayfiyatini ko‘taradigan holat va jo‘shqinlik bor. Bundan tashqari raqs aynan Avesto davri bilan bog‘liq. Shuning uchun ham “Lazgi” O‘zbekiston madaniy merosining elementi sifatida Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan” – deya ta’kidladi Hamrayeva. Gavhar Matoqubova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva kabi san’at ustalari Xorazm xalq raqslarini mukammallikka olib kelishgan. Gavhar Matoqubova tomonidan xorazm raqslari aynan milliy qadriyatlar, etnografiya bilan bog‘lab tahlil qilingani nafaqat o‘zbek, balki jahon xoreografiya san’atida ham noyob hodisa hisoblanadi. Xorazm raqsi haqida “Ofatijon lazgi”, “Lazgi monografisi”, yaqinda o‘zbek va ingliz tillarida nashr etilgan “Xorazm Lazgi raqsi tarixi va tavfsifi” kabi kitoblarda batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Lazgi — Xorazm xalq kuyi va raqsi. Erkaklar (jangovar va qahramonlik ruhida) va ayollar (lirik, hazilomuz) raqslari farqlanadi[1]. Afsonaviy o‘zbek raqqosalari Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva va Gavhar Matyoqubova har bir harakatga sayqal bergan holda, Xorazm xalq raqslarini mukammallikka olib kelganlar va shu bilan jahon sahnasini zabt etganlar. Lazgi 2019-yil 13-dekabr kuni „Xorazm raqsi – lazgi” nomi ostida YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-sentabrda „Lazgi xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ 4843-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta „Lazgi“ xalqaro raqs festivali 25-30-aprel kunlari Xiva shahrida o‘tkazilishi belgilangan. Ixtiyor Baxtiyorov tomonidan tasvirga olingan „Lazgi” hujjatli filmi „Art Stream”, „Fifflondon”, „Blackboards”, „Lift-Off Season Awards”, va „IFFT” kabi qator xalqaro tanlovlarda „Raqs haqidagi eng yaxshi hujjatli film” sifatida munosib ko‘rilib, mukofotlangan. Dubai Opera sahnasida “Lazgi – qalb va muhabbat raqsi” balet postanovkasining xalqaro premyerasi o‘tkazilgan[3][4]. Kuy kichik muqaddima va 3 qismdan iborat. 6/8 o‘lchovli gul ufori usulida ijro etiladi. Raqs sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi — oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So‘ngra birdaniga qo‘l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar ulanib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy harakteri o‘zgarishi va sur’at tezlashishi bilan raqs tobora qizg‘inlasha borib, keskin holda tamom bo‘ladi. Lazgining qadim tarixi olovning kashf qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, zardushtiylik diniga borib taqaladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da bu haqida yagona ma’lumotlarning borligi olimlar tomonidan ta’kidlangan. Xorazm xalq og‘zaki ijodida lazgining yaratilishi haqida turli xil afsona va rivoyatlar bor. Masalan, jonning tanaga kirish jarayonini ifodalishi haqida, iqlimning sovuq bo‘lganligi va olov yoqib isinish uchun turli harakatlar orqali raqsning paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarni lazgining yaratilishiga bog‘lashadi. Qadimgi lazgi to‘g‘risida shunday afsona bor. Inson tanasi dastlab loydan yasalib, alohida-alohida bo‘lgan ekan. Jonga „tanaga kir” deb buyuribdilar jon tanaga kirib birdan qo‘rqib qaytib chiqadi. „Kir tanaga” deb qayta buyuradilar. U „qo‘rqaman” debdi. Shunda ilohiydan bir kuy taralibdi. Bu kuyga maftun bo‘lgan jon tanaga qanday kirganini o‘zi bilmay qolibdi. Oldin barmoqlariga, panjalariga, bilaklariga, yelkalariga jon kirib, inson tirilibdi. Bu ilohiydan kelgan “Lazgi” kuyi ekan. Hozirgi davrda Xorazmda lazgi raqsining 8 turi mavjud bo‘lib, ular:

- „Qayroq lazgisi”;

- „Dutor lazgisi”;
- „Surnay lazgisi”;
- „Masxaraboz lazgi”;
- „Saroy lazgi”;
- „Changak lazgi”;
- „Xiva lazgi”;
- „Garmon lazgi” kabi turlarini aytish mumkin.

Bulardan tashqari, XX asr o‘rtalaridan boshlab so‘z bilan ijro etiladigan, turli ijrochilar tomonidan yallali lazgilar yaratilgan: "Kimni sevar yorisan" (K. Otaniyozov), "Loyiq" (A. Otajonov va M. Rahimov), "Sani o‘zing bir yona" (O. Hayitova, B. Jumaniyozov), "Gal-gal" (B. Hamdamov), "Parang ro‘mol" (O. Xudoyshukurov), "Xorazmning lazgisi" (O. Otajonov), "O‘yna-o‘yna" (K. Rahmonov), "Ajoyib" (T. Shomurodov) va boshqalar. lazgining kuy va usulidan Sh. Ramazonov "Xorazmcha syuita"sida, M. Yusupov "Xorazm qo‘shig‘i" operasi va "Gulsanam" baletida, B. Giyenko "Xorazm mavzulariga syuita"sida, S. Yudakov "Xorazmcha bayramona yurish"ida, M. Bafoyev "Xorazmcha kaprichchio"sida unumli foydalanishgan. Komiljon Otaniyozov tengdosh do‘stlari Abdusharif Otajonov va Matniyoz Yusupovlar bilan o‘z davrida lazgini zamonaga mos ravishda ko‘rsatish, keyingi avlodlarga yetkazish borasida ulkan ishlarni amalga oshirganlar. 1958-yili Xorazm surnay lazgisi asosida bastakor Abdusharif Otajanov unga o‘ziga xos usul va avjlarni kiritib, shoir Xushnud Abdullaning „Loyiq” radifli g‘azali bilan ashula variantini ishlagan. Bundan ilhom olib lazgining cholg‘u qismiga yangi jilo berib, Komiljon Otaniyozov yuqorida nomi keltirilgan lazgiga o‘xshamagan yangi uslubda o‘ziga xos bir turini ijod qilgan. Qo‘shiqni boshlang‘ich qismiga chorlov uslubida „Omon-ey, omon!” degan so‘zi asosida muqaddima qilib, asosiy lirik qismiga Komil Xorazmiy so‘zlaridan foydalanib, betakror yalla variantini yaratganlar. Komiljon Otaniyozov tashabbusi bilan hamkasb do‘sti Matniyoz Yusupov tomonidan 1960-yilda nashr qilingan (I.Akbarov bilan hamkorlikda) „O‘zbek xalq muzikasi”ning VII tomiga Lazgi va Surnay Lazgisi kuylarining notalari kiritilgan. Lazgini keng ommaga targ‘ib qilish uchun Komiljon Otaniyozov taklifi bilan „Maftuningman” filmiga „Lazgi” raqsi kiritilgan[6].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Lazgi o‘zbek xalqining, ayniqsa Xorazm vohasining ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘zida mujassam etgan noyob raqs san’atidir. Uning shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, dunyoqarashi va estetik qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Lazgining har bir harakati, ritmi va musiqiy ohangi insonning ichki kechinmalari, tabiat hodisalari, hayot quvonchi va ijodiy tafakkurini badiiy vositalar orqali ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Lazgi nafaqat milliy raqs san’atining yorqin namunasi, balki xalqimizning o‘ziga xos madaniy ramzi sifatida ham e’tirof etiladi. Uning xalqaro miqyosda tan olinishi, jumladan, UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi ushbu san’at turining jahon madaniyatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamladi. Bu esa Lazgini ilmiy asosda o‘rganish, uning tarixiy ildizlarini chuqur tadqiq etish va badiiy xususiyatlarini keng targ‘ib qilish zarurligini ko‘rsatadi. Lazgini asrab-avaylash va rivojlantirishda ustoz-shogird an’analarini davom ettirish, iqtidorli yosh ijrochilarni qo‘llab-quvvatlash, maxsus o‘quv dasturlari va amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ilmiy izlanishlar, xalqaro festival va konferensiyalar, madaniy almashinuv dasturlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali Lazgining dunyo miqyosidagi targ‘ibotini yanada kuchaytirish mumkin. Mazkur maqolada keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Lazgi faqat raqs emas, balki xalqning tarixi, milliy o‘zligi, ma’naviy qadriyatlari va estetik tafakkurini mujassam etgan bebaho madaniy merosdir. Uni asrash, ilmiy jihatdan tadqiq etish

va kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir. Zero, Lazgining yashashi va rivojlanishi milliy madaniyatimizning boyishi, xalqimizning ma'naviy salohiyati va xalqaro nufuzining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Botir Matyoqubov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. „Lazgi raqsi – Xorazm folklorining yuragi". Qaraldi: 2023-yil 21-aprel.
3. Xudayberganova M, Xolmo'minov M. *Xorazm "Lazgi" raqsi: paydo bo'lish tarixi, shakllanish davri va taraqqiyot bosqichlari*.
4. *Oriental Art and Culture*, Volume 3 Issue 2. Scientific-Methodical Journal, iyun 2022.
5. Matyoqubova G. *Ofatijon "Lazgi"*, Toshkent, 1993 — 12-bet.
6. Rahimov B. *Lazgi ashulasi qanday yaratilgan?*, Issue 10, Volume 1, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. ISBN 2181-1784.